



Fuqarolarning mehnat huquqi. Mehnat shartnomasi.

Andijon davlat universiteti

MG’MAHT yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi

Annotatsiya: Maqolada fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb yoki faoliyat turini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash, dam olish huquqlari, shuningdek mehnat shartnomasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Mehnat qilish huquqi, kasb yoki faoliyat turini erkin tanlash huquqi, mehnat munosabatlari, ish beruvchi, xodim, mehnat shartnomasi, mehnat shartnomasini tuzish.

Mehnat munosabati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o’zagi hisoblanib, jamiyat va davlat taraqqiyoti, fuqarolar hayoti va ularning moddiy farovonligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O’zbekiston kelajagi buyuk davlat” kitobida shu xususda to’xtalib, bunday degan: “Xalqimizga quruq va’dalar emas, balki aniq rejalar kerak. Bemalol aytish mumkinki, siz bilan biz chiqargan qonunlar va farmonlarda asosli imkoniyatlar va aniq bajarsa bo’ladigan rejalar o’z ifodasini topdi. Hayotimizni ayrim sobiq ittifoqdosh respublikalar – bugungi yangi mustaqil davlatlar hayoti bilan qiyoslasak, bizning xalqimiz mitingbozlik, dabdababozlikka berilmasdan, tinch, qadam-baqadam yaratuvchilik faoliyati bilan band ekanini ko’ramiz. Ishchi - dastgoh yonida, dehqon – dalada, vrach – shifoxonada, muallim – sinfxonada, xullas har kim o’z joyida mehnat qilyapti. Bu mehnatning ko’zga tashlanib turgan quvonchli natijalari beqiyosdir”¹⁸.

Shuning uchun ham mehnat munosabatlarini o’rganish va tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Mehnat huquqi – ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi, ma’lum munosabatlarni (mehnat munosabatlarini) tartibga soluvchi huquqiy normalar yig’indisi bo’lib, bunda u huquqning alohida bir tarmog’i hisoblanadi. Ikkinci ma’nosi mehnat huquqi deganda shaxsnинг mehnat qilish huquqini bildiradi. O’zbekiston Konstitutsiyasining 37-moddasida mehnat qilish huquqi shaxsning asosiy huquqlari sifatida belgilangan. Unga asosan, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqiga ega. davlat mehnat huquqini kafolatlab, har bir shaxsga yaxshi, adolatli mehnat sharoitlarini yaratib berish, ishsizlikdan himoya qilish kafolatini oladi. Mehnatga yarasha haq to’lash qonun bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari hech kim majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin emas. Voyaga yetmaganlarning mehnat

¹⁸ Islom Karimov.O’zbekiston kelajagi buyuk davlat.(O’zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura),1-jild,Toshkent, “O’zbekiston”,105-b.



huquqi alohida himoya qilinadi. Ular uchun kam ish kuni va soati o'rnataladi, og'ir va zararli ishlarga jalg qilish taqiqlanadi.¹⁹

Yangi Konstitutsiyamizda ham mehnat qilish huquqi ta'minlangan. Konstitutsiyaning 42-moddasida: "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lмаган tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi", deyilgan.

Bundan ko'rinish turibdiki, malakatimizda erkin kasb yoki faoliyat turini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash hamda gender huquqi ta'minlangan holda erkin mehnat qilish huquqi qonun bilan kafolatlanadi va himoya qilinadi.

Mehnat munosabatlarini o'rganishda mehnat shartnomasiga alohida to'xtalib o'tish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko'rsatilishicha, mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozimga oid ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normative hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Mehnat shartnomasi mazmun-mohiyati jihatidan ko'p qirrali bo'lib, birinchidan, fuqarolarning mehnat qilish huquqlarini amalga oshirish shakli; ikkinchidan, mehnatga oid huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi va muayyan vaqt davomida amal qilishini ta'minlovchi asos; uchinchidan, mehnat huquqining instituti sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mehnat shartnomasi fuqarolarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish hamda ishdan bo'shatishga oid normalar majmuini tashkil etadi.²⁰

Mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlar darjasini pasaytirilishi mumkin emas.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lган kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi.

¹⁹ A.Azizzoxo'jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at) "Akademiya" Toshkent-2001.66-b.

²⁰ J.Yoqubov.,E.Hayitboyev.Huquqshunoslik.Darslik.Toshkent "Yangi asr avlod".2006.110-b.



Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzosi bilan mustahkamlanib, uning tasdiqlangan muddati ko'rsatiladi. Bunday tasdiqlash imzoning haqiqiy va vakolatli ekanini ko'rsatadi.

Mehnat shartnomasi sanasi ko'rsatilgan holda imzolar bilan tasdiqlanadi. Korxona, muassasa, tashkilot ishga qabul qilish huquqi berilgan mansabdor shaxsning imzosi gerbli muhr bilan tasdiqlanadi(gerbli muhr bo'limgan taqdirda , imzoning haqiqiyligi va vakolatliligi boshqa muhr bilan tasdiqlanadi).

Mazkur tavsiyalarda ko'rsatilganidek, xodimning talabiga ko'ra, mehnat shartnomasi u biladigan tilda tuziladi va davlat tilida tuzilgan shartnoma bilan bir xil kuchga ega bo'ladi.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqarish uchun asos hisoblanadi.²¹

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Islom Karimov.O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.(O'zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura),1-jild,Toshkent, "O'zbekiston".
- 2.A.Azizzxo'jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at) "Akademiya" Toshkent 2001.
- 3.J.Yoqubov.,E.Hayitboyev.Huquqshunoslik.Darslik.Toshkent "Yangi asr avlodi".2006.

²¹ J.Yoqubov.,E.Hayitboyev.Huquqshunoslik.Darslik.Toshkent "Yangi asr avlodi".2006.117-b.